

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**JIZZAX VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2023-YIL
YANVAR-DEKABR**

Jizzax – 2024-y.

SO‘Z BOSHI

Jizzax viloyatining statistik axborotnomasi Jizzax viloyatining ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Jizzax viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2023-yil yanvar-dekabr oylari yakunlari bo‘yicha Jizzax viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT–2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dexqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (Seksiya A “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya‘ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan.

Dastlabki hisoblarga asosan kelgusida aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar keltirilmoqda.

Qisqartma va shartli belgilar

YaHM	–	yalpi hududiy mahsulot	l	–	litr
foiz	–	%	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	–	milliard	m.	–	marta
mln.	–	million	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSH doll.	–	million AQSH dollari	Ga	–	gektar
kv	–	kvadrat	t	–	tonna
km	–	kilometr	1), 2), 3).....	–	izohning mavjudligi
m	–	metr			


MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR	5
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT	6–14
II. SANOAT	15–34
III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI	35–52
IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI	53–67
V. XIZMATLAR	68–83
VI. TRANSPORT	84–87
VII. ISTE‘MOL BOZORI	88–97
VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT	98–112
IX. KICHIK TADBIRKORLIK	113–116
X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	117–127
XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	128–139
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	140–149
XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	150–158

Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
2023-yil yanvar-dekabr

<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	<i>Mld. so'm</i>	<i>2022-yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida</i>
 Yalpi hududiy mahsulot	33 323,3	105,0
 Sanoat mahsuloti	19 000,6	107,4
 Iste'mol tovarlari	10 772,4	187,2
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari	27 577,1	104,1
 Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	16 612,8	148,8
 Qurilish ishlari	3 917,3	107,2
 Yuk aylanmasi (mln. tn–km)	1 130,8	103,0
 Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi.–km)	2 608,2	101,3
 Chakana savdo tovar aylanmasi	9 484,6	107,2
 Xizmatlar, jami	10 378,3	112,8
 Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.)	1 427,0	2,1 m.
 Ekspart	173,3	86,8
 Import	1 253,7	2,6 m.
 Saldo (+,-)	-1 080,4	x

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT





Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, viloyatda 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi joriy narxlarda 33 323,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi. YaHMning oʻsish surʼati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 105,0 foizni tashkil etdi.



2021-2023 yillarning yanvar-dekabr oylarida YaHMning deflyator indeksi

2021-2023 yillarning yanvar-dekabr oylarida YaHMning oʻsish surʼatlari

(oʻtgan yilning mos davriga nisbatan foizda)




Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy koʻrsatkichi boʻlib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha yalpi qoʻshilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yigʻindisi orqali hisoblanadi.




2021-2023 yillarning yanvar-dekabr oylarida YaHMning o'rishida (kamayish) sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan foizda)


YaHM




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliqchlik xo'jaligi




Xizmatlar



Sanoat



Maxsulotlarga sof soliqlar



**2023-yilning yanvar-dekabr oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM ishlab chiqarishda tarmoqlarning ulushi, foizda**

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 104,0 foiz, (YaHM tarkibidagi ulushi 49,2 foiz), sanoat – 107,4 foiz (16,9 foiz), qurilish – 107,2 foiz (5,2 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 112,0 foiz (6,3 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 109,5 foiz (3,4 foiz) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 102,2 foiz (19,0 foiz)ni tashkil qildi.




**2023-yilning yanvar-dekabr oyida aholi jon boshiga
hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari**



*Aholi jon boshiga
hisoblangan
YaHM, ming so'm*



*Aholi jon boshiga
hisoblangan YaHM,
o'sish sur'ati*




Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 22 342,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,8 foizga o'sdi.



2023 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

Ko'rsatkichlar nomi	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2022-yil	2023-yil	
I. YaHM	27 545,4	33 323,3	105,0
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	26 833,1	32 330,7	104,9
 Mahsulotlarga sof soliqlar	712,3	992,6	109,1
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	26 833,1	32 330,7	104,9
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	13 948,6	15 917,4	104,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 164,9	7 151,0	107,3
 sanoat	3 695,5	5 477,5	107,4
 qurilish	1 469,4	1 673,5	107,2
Xizmatlar	7 719,6	9 262,3	105,0
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 508,2	2 041,8	112,0
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	922,6	1 092,8	109,5
 boshqa xizmat tarmoqlari	5 288,8	6 127,7	102,2

Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir.



2023 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	2022-yil	2023-yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shujumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,4	97,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,6	3,0
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	52,0	49,2
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	19,3	22,1
	sanoat	13,8	16,9
	qurilish	5,5	5,2
	Xizmatlar	28,7	28,7
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,6	6,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,4	3,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	19,7	19,0

2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,0 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YaHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 49,2 foizni, sanoat tarmogʻi 16,9 foizni, qurilish 5,2 foizni va xizmatlar sohasi 28,7 foizni tashkil qildi.



Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi
yanvar-dekabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)







● Yalpi qoʻshilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar




2022-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




■ 2022-yil
■ 2023-yil

2023- yilning yanvar-dekabrda YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,0 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 49,2 %), sanoatda – 107,4 % (16,9 %), qurilishda – 107,2 % (5,2 %), xizmatlar sohasida – 105,0 % ni (28,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,0 % (6,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,5 % (3,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,2 % dan (19,0 %) iborat bo'ldi.






2022-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2023-yilning yanvar-dekabrda YaHM deflyatori indeksi 2022- yilning yanvar-dekabrda narxlarga nisbatan 115,2 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 138,0 % va xizmatlar sohasida – 114,3 % qayd etildi.




Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2023-yil yanvar – dekabr oylarida – 6,3 foizni (2022 yil yanvar – dekabrda – 5,6 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa 3,4 foizni (3,4 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 19,7 foizni (19,0 foiz) tashkil etdi.



2022-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning hajmi va YaHMdagi ulushi

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik 22 342,1 mlrd.so'm (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida – 18 873,2 mlrd.so'm)ni tashkil qildi. YaHMdagi ulushi 77,3 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida – 73,7 %)ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

